

**“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining
2024 yil __-____dagi __-son bayonnomasi
bilan
TASDIQLANGAN**

“O‘ZMETKOMBINAT” AKSIYADORLIK JAMIYATINING IQLIM O‘ZGARISHI SOHASIDAGI SIYOSATI

Bekobod, 2024-yil

Kirish

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ta'rifiga binoan, iqlim o'zgarishi atrof-muhit haroratining uzoq muddatli o'zgarishi va joriy ob-havo sharoitlarining o'zgarishini anglatadi. Qurg'oqchilik, yong'inlar, toshqinlar, bo'ronlar, haddan tashqari yuqori va past harorat, po'rtanalar kabi iqlim o'zgarishining ekstremal oqibatlarini insonlarga ham, butun dunyodagi sanoat va ijtimoiy infratuzilmaga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IO'HEG) izlanishlari natijalariga ko'ra, iqlim o'zgarishining asosiy omili inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi hisoblanadi.

“O'zmetkombinat” AJ iqlim o'zgarishi butun insoniyat uchun global chaqiruv ekanligiga qo'shiladi, antropogen hissaning ahamiyatini va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida muvofiqlashtirilgan chora-harakatlar zarurligini tan oladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Milliy miqyosda belgilanadigan hissasi bo'yicha maqsadlarni, shuningdek, Parij bitimining sanoat davrigacha bo'lgan darajadan 2 daraja yuqori harorat ko'tarilishini cheklash bo'yicha global maqsadini qo'llab-quvvatlaydi.

“O'zmetkombinat” AJ va uning sho'ba korxonalarini (keyingi o'rinlarda birgalikda “Kompaniya” deb yuritiladi) ushbu Iqlim o'zgarishi bo'yicha siyosati (keyingi o'rinlarda “Siyosat” deb yuritiladi) Kompaniyaning quyidagilarga sodiqligini tasdiqlaydi:

- Iqlim o'zgarishining antropogen sabablariga qarshi kurashish;
- Iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish.

“O'zmetkombinat” AJ iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi o'z faoliyati bo'yicha quyidagi milliy hamda xalqaro hujjatlar va standartlarda belgilangan qoidalar va tamoyillarga tayanadi.

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi;
- Kompaniya o'z faoliyatini olib boradigan boshqa mamlakatlar qonunchiligi;
- 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan);
- Parij bitimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Milliy miqyosda belgilanadigan hissasi (MMBH) (2021 yildagi Yangilangan hisobot);
- Parij bitimi (02.10.2018 yildagi O'RQ-491-son bilan ratifikatsiya qilingan);
- Task Force on Climate-related Financial Disclosures (TCFD) oshkor qilish bo'yicha ko'rsatmalari;
- Adolatli o'tish tamoyillari.

Kompaniyaning iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha asosiy tamoyillari

Qora metallurgiya energiyani ko'p talab qiluvchi sanoatdir. O'zbekiston Respublikasidagi yirik qora metallurgiya korxonasi bo'lgan “O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati yirik energiya iste'molchisi va issiqxona gazlari emitenti hisoblanadi.

Kompaniya faoliyatining eng muhim tamoyili O'zbekiston Respublikasining iqlimni tartibga soluvchi qonunchiligi talablariga rioya etish va bunday qonun hujjatlarini ishlab chiqishda ko'maklashishdir.

Kompaniya iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va unga moslashish sohasidagi faoliyatining quyidagi asosiy jihatlarini ajratib olgan:

- O‘z ta‘sirini kamaytirish;
- Muloqot va xabardorlikni oshirish;
- Faoliyat hududlarini rivojlantirish.

“O‘zmetkombinat” AJning **o‘z ta‘sirini kamaytirish** bo‘yicha asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- Scope 1 va Scope 2 issiqxona gazlari chiqindilari inventarizatsiyadan o‘tkazish;
- Scope 1 va Scope 2 issiqxona gazlari chiqindilari massasini kamaytirish bo‘yicha miqdoriy maqsadlarni belgilash;
- Maqsadli ko‘rsatgichlarga erishishni monitoring qilish va barcha manfaatdor tomonlarga hisobot taqdim etish uchun issiqxona gazlari chiqindilarini yillik baholash tizimini ishlab chiqish va rasmiylashtirish.;
- Moddiy va o‘tish davri iqlimi xavf-xatarlari va imkoniyatlarini aniqlash va baholash;
- Resurslarni tejovchi, ekologik va texnik jihatdan xavfsiz texnologiyalardan, mavjud ilg‘or texnologiyalardan (MIT) foydalangan holda uskunalarni modernizatsiya qilish va texnologik jarayonlarni takomillashtirish;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (QTEM) elektr energiyasini iste‘mol qilishni bosqichma-bosqich oshirish;
- Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish, joriy etish va amalga oshirish.

“O‘zmetkombinat” AJning **muloqot va xabardorlikni oshirish** bo‘yicha asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik bo‘yicha masalalarda o‘zaro hamkorlik qilish;
- Energiya samaradorligi, resurs samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va boshqalar bo‘yicha izlanishlar olib boruvchi ilmiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;
- Barcha manfaatdor tomonlarni kompaniyaning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash sohasidagi faoliyatining muhim jihatlari to‘g‘risida xabardor qilish;
- Ta‘minot zanjiri bo‘ylab issiqxona gazlari chiqindilarini tahlil qilish va bunday chiqindilarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash uchun mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish;
- Ish va ishdan tashqarida resurslarni iste‘mol qilishga ongli tarzda yondashuvni rivojlantirish maqsadida kompaniya xodimlarining iqlim o‘zgarishining sabablari va oqibatlarini to‘g‘risida xabardorligini oshirish.

“O‘zmetkombinat” AJning **faoliyat hududlarini rivojlantirish** bo‘yicha asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- Faoliyat hududlarda qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish, ijtimoiy va boshqa infratuzilmalarning iqlim o‘zgarishi ta‘siriga chidamliligini oshirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ishtirok etish;
- Faoliyat hududlarda iqlim loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishda ishtirok etish;
- Iqlim o‘zgarishi masalalarini Kompaniyaning ijtimoiy sohadagi faoliyatiga integratsiyalash va u faoliyat yuritayotgan hududlarni rivojlantirish.

Siyosatni joriy etish va uning bajarilishini nazorat qilish tartiblari

Ushbu Siyosat tamoyillarini amalga oshirish va ularga rioya qilish majburiyati to'liq Kompaniyaga yuklanadi. Shuningdek, "O'zmetkombinat" AJga tegishli bo'lgan barcha kompaniyalar ushbu Siyosatga muvofiq iqlim o'zgarishi sohasidagi tartib va siyosatlarni, agar ular kompaniyalar joylashgan mahalliy qonunchilikka zid bo'lmasa, amalga oshirishlari shart.

Barcha siyosatlar, shu jumladan, ushbu Siyosat barcha xodimlar va manfaatdor tomonlar uchun ochiqdir va Kompaniyaning ichki va tashqi portallarida e'lon qilinadi. Barcha xodimlar ushbu siyosatlarning mavjudligidan xabardor va ular qayerda e'lon qilinganligini bilishadi.

Ushbu Siyosat Kompaniyaning ajralmas qismi hisoblanadi va Kompaniyaning ish etikasi va mas'uliyatli xatti-harakatlarini tartibga soluvchi siyosatida nazarda tutilgan boshqa tamoyillar va yondashuvlar kontekstida ko'rib chiqiladi.

Ushbu Siyosat talablarining buzilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, Kompaniyaning ichki siyosati va tartib-qoidalariga muvofiq jiddiy intizomiy jazo choralarini qo'llanishiga sabab bo'ladi, bunda huquqbuzarni ishdan bo'shatish ham nazarda tutilishi mumkin. Yuqoridagi choralar Kompaniyaning barcha xodimlariga, shu jumladan rahbarlar, mansabdor shaxslar, direktorlar, shuningdek pudratchilar, biznes hamkorlar va Kompaniya tomonidan jalb qilingan yoki Kompaniya nomidan xizmatlar ko'rsatadigan uchinchi shaxslarga nisbatan ham teng darajada qo'llaniladi.

Yuzaga keladigan savollar bo'yicha aloqa ma'lumotlari

Biz manfaatdor tomonlardan taqdim etiladigan barcha murojaatlarga ochiqmiz. Ushbu Siyosat mazmuni va qo'llanilishiga doir savollar bizning mutaxassislarimizga istalgan qulay shaklda, shu jumladan telefon va elektron pochta orqali yuborilishi mumkin.

Murojaat uchun aloqa ma'lumotlari:

- Tel.: 0(370) 213-16-02, 0(370) 213-16-02
- Veb sayt: www.uzbeksteel.uz
- E-mail: info@uzbeksteel.uz
- E- mail: uzbeksteel@exat.uz